

“BERDAQ: QORAQALPOQ XALQINING ARDOQLI VA BUYUK SHOIRI”.

Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti

2-pediatriya va Fundamental Tibbiyot fakulteti

*1-kurs talabasi **Sobirova Nasibaxon Jammoliddin qizi.***

Email: jamoliddinovnanasibaxon7@gmail.com.

Tel: +998 33) 212 – 75 – 70.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri va madaniy arbobi Berdaqning hayoti, ijodi hamda uning qoraqalpoq adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi yoritilgan. Unda shoirning asarlarida milliylik, xalq taqdiri va ijtimoiy adolat masalalariga bo'lgan yondashuvi tahlil qilinadi. Berdaqning she'riyatida vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari asosiy o'rin tutishi, Shuningdek, uning ijodiy merosi qoraqalpoq xalqining ma'naviy boyiligiga aylangani keng ko'lamda ochib berilgan. Mazkur maqola Berdaq ijodining bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Etnografiya, abadiylashtirish, nifoq o'chog'i, mutafakkir, nobob, umuminsoniy qadriyatlar, demokratik, byust.

Qorqalpoq xalqining boy madaniy merosi va adabiyoti haqida so'z yuritilganda, Berdaqning nomi tilga olinadi. Buyuk shoir Berdaq o'zining betakror iste'dodi, kuchli she'riyati va xalqning qalbiga yaqin asarlari bilan qoraqalpoq adabiyotining eng yorqin namoyondalaridan biri sifatida tanilgan.

Berdaqning hayotii Qoraqalpoq xalqi uchun og'ir va sinovli davrlarga to'g'ri kelgan. Bu davrda xalq turli ijtimoiy va siyosiy muammolar

girdobida edi. Shoirning o'z xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbati va milliy masalalarga e'tibori uni xalqining chinakkam yetakchi shoiriga aylantirgan.

Sahroning bulbuli – deb kuylangan shoir o'zi yozgan she'rlarida, dostonlarida zahmatkash xalqning boshidan o'tkazgan og'ir kunlarini aks ettirgan. Dengiz balig'ini bermadi deb nola qilgan shoirning dunyoga kelishi haqida xalq orasida har xil rivoyatlar mavjud. Ushbu satrlarni o'qigan bugungi avlod o'sha paytlari ham Orol chekinib ketgan ekan – da deb o'ylashi mumkin. Yo'q, dengiz ham daryo ham baliqqa to'la bo'lgan lekin kemalar – u ov qurrollari zo'ravonlarning qo'llarida edi, ba'zi joylarda kambag'allarga ov qilish ma'n etilgandi. Baliqlarga to'la daryo va dengizdan kambag'alning rizq - u nasibasini Allohdan so'rab yurtdoshlarini sabr - toqat va bardoshlilikka da'vat etgan shoir bu dunyodan adolat va erkinlik izlagan edi.

Berdaqni ijodini o'rganish, qo'lyozmalarini izlab topish ishlari o'tgan asrning 30 – yillaridan keyin boshlangan. Shundan so'ng uning she'r va dostonlari avval ona tilida keyin boshqa bir qator tilarda bosilib chiqdi. Uning hayoti va ijodini chuqur o'rganishga kirishildi. Mamlakatimiz istiqloлга erishga, Berdaq hayoti va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. 1998 – yilda Yurtboshimiz farmoniga binoan Berdimurot Qarg'abay o'g'li Berdaq tavalludining 180 yilligi keng nishonlandi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti qoshida Berdaq Milliy muzeyi tashkil etildi. Berdaq (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) (1827— Mo'ynoq tumani—1900)—shoir, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi. Avval ovul maktabida, so'ng madrasada tahsil ko'rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumduli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chukur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. U tarixni va xalk, og'zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she'rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18— 19 – asrlardagi ijtimoiy hasti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Berdaq ko'p shaharlarga sayohat qildi.

Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'ldi. Urganch va Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Berdaq Alisher Navoiy, Fuzuliy va Maxtumlul ijodlarini chuqur o'rganib, she'rlarini mutolaa qildi. Zamondosh shoirlar bilan musohib bo'ldi. Berdaq she'rlarining aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'rovonligi va adolatsizligiga bag'ishlangan.

Berdagning ijodi 18—19 yoshlaridan do'mbira chertib she'r aytishdan boshlandi. 25 yoshida u iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Berdaq «Shajara», «Xorazm», «Amongeldi», «Aydosbiy» va «Ahmoq podsho» dostonlarining ham avtoridir. 1961 - yilda Berdaqning she'rlar to'plami o'zbek tilida bosilib chiqdi. "O'zbekkino" milliy agentligi buyurtmasiga binoan "Qoraqalpog'film" kinostudiyasi tomonidan Berdaq hayoti va ijodi haqida "Amu sohili kuychisi" nomli hujjatli film suratga olinmoqda. Mazkur film yetuk shoir, qoraqalpog' mumtoz adabiyoti asoschisi Berdaq taxallusi bilan ijod qilgan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li haqida bo'lib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat "YOSH OLIMLAR ILMIY – AMALIY KONFERENSIYASI" in-academy.uz/index.php/yo 109 Mirziyoyevning 2020 – yil Adiblar xiyoboniga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida tasvirga olinmoqda. Ssenariy muallifi Kengesbay Karimov, rejissyor Bektilev Nizamatdinov, operator Asenbay Asqarov, kartina direktori Baxtiyar Madiyarov. Filmni suratga olish ishlari Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumani Berdaq bog'i, Qoraqalpog' davlat universiteti, Berdaq muzeyi va boshqa joylarda bo'lib o'tmoqda. Undan tashqari, Berdaq nomiga atab, Qoraqalpog'iston davlat universiteti ham bunyod etilgan.

Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi (1998). Toshkent shahridagi hiyobonlardan biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tugilgan joy — Bo'zatovda ham byusti

oʻrnatilgan (1998). Nukus shahrida Berdaqqa haykal qoʻyilgan, musiqiy - drama teatri, koʻcha va maktabga Berdaq nomi berilgan.

Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokratik shoiridir. Mutafakkir togʻrisida maʼlumotlar kam saqlanib qolgan. Uning tarjimai xoli va ijodiga oid maʼlumotlarni, asosan, oʻzining asarlarida uchratish mumkin. Ota – onasidan erta yetim qolgach u amakisining qoʻlida tarbiya koʻradi. Berdaq yoshligidan boshlab sheʼr yozishni mashq qila boshlaydi. Xalq qoʻshiqlari, turli afsonalar, ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishish, mashhur shoirlarning sheʼrlaridan bahramand boʻlish mutaffakkir badiiy ijodini kamolga yetib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, Berdaq asta – sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi. Eng muhimi, sheʼrlariga oʻzi kuy bastalab kuylay boshlaydi. Berdaq koʻp shaharlarga sayohat qildi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida boʻldi. Urganch va Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Zamondosh shoirlar bilan musohib boʻldi. Berdaq sheʼrlarining aksariyati kambagʻal, beva - bechoralarning ayanchli hayoti, ulaning ogʻir mehnati boy – zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zoʻravonligi va adolasizligiga bagʻishlangan. Uning sheʼrlarida insonparvarlik tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, mehr - shaqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr - muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar oʻz aksini topgan.

Berdaq hayotligida Orolboʻyi xalqlari, ayniqsa, qoraqalpoqlar oʻrtasida milliy ozodlik harakatlari kuchaydi. Qoraqalpogʻiston oʻsha xalqlar oʻrtasida nifoq oʻchogʻiga aylandi. Xiva xonligi Qoraqalpogʻistonni nobob deb hisoblagan va oʻz xalqiga doimiy ravishda majburiyatlarni yuklagan. Rossiya imperiyasi Qoraqalpogʻistonga ham qiziqardi, chunki u Markaziy Osiyoga kirish eshigi edi. Berdaq nafaqat ijtimoiy muammolar, balki ayollarning huquqlari va qadr – qimmatini himoya qilish haqida ham yozgan. U tenglik va ayollar huquqlarini targʻib qildi. Uning orzusi turli urushlar bilan ajralib qolgan xalqlarni

birlashtirish edi. To‘y - hashamlarda, turli bayramlarda o‘z qo‘shiqlarini kuylagan. Uning qo‘shiqlari hayoti juda og‘ir bo‘lgan mahrum odamning taqdiri haqida edi. Uning eng mashhur she‘rlari: Ahmaq Padsho (Tsar Samomour) uning hayoti va she‘riy tajribalari va qoraqalpoq aholisining qiyinchiliklarini tasvirlaydi. Uning boshqa she‘rlari Xalik Usin, Omongeldi, Aydozbiya va Ernazarbiy kiradi. Berdaq vafotidan so‘ng uning nomini abadiylashtirish maqsadida juda ko‘p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi – O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi qoraqalpoq xalqining tarixi, etnografiyasi va madaniyatiga oid muzey bo‘lib, hozirgi qoraqalpoq adabiy tilining asoschisi qoraqalpoq xalqi shoiri Berdaqning nomi berilgan. YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/yo 110 Darhaqiqat, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor – Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi asosiy natijalardir.

Berdaq – Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri va ma’naviy yetakchisi. Uning ijodiy merosi xalq dardini kuylash, adolat va milliy birlikka chaqirishning yorqin namunasi sifatida abadiyatga daxldor. Berdaqning nomi va asarlari qoraqalpo xalqining yuragida abadiy saqlanib qoladi. Mazkur maqola buyuk shoirning ijobiy merosini o‘rganish va uni yangi avlodlarga yetkazish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Tanlangan asarlar, Nukus. 1956.*
2. *Qurbonboyeb B, Berdaq va o'zbek adabiyoti, Toshkent. 1986.*
3. *O'zME. Birinchi jild, Toshkent.2000.*
4. *Mirtemir tarjimasi, Berdaq saylanma G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent.1978.*
5. <http://www.ref.uz>.